Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 10

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-10

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона давлат университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Laziz Alimardonov
YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……5

2. Doniyor Jumaniyozov
XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI……11

3. Nilufar Djurayeva
O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL……17

4. Baxtiyor Mirkomilov
BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA……30

5. Murod Raxmatov
AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI……39

6. Nilufar Raxmatova
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI……46

7. Raxmatjon Saotboyev
XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR…53

8. Ikromjon Umarov
XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA SURXON-SHEROBOD VOHASIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA SUVDAN FOYDALANISHNING AN’ANAVIY SHAKLLARI……..58

9. Ra’no Xatamova
O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI…65

10. Raxim Xudoyberdiyev
TERMIZ VA CHAG‘ONIYON HUDUDLARIDA SIRLANGAN KERAMIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI……70

11. Муродилла Ҳайдаров
ОКТЯБР ТЎНТАРИШИ: БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ СОЦИАЛ ТАЖРИБАСИ ВА ҲАРАКАТЛАНТИРУВЧИ КУЧЛАР НИСБАТИ……76

12. Озоджон Қувондиқов
ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ ЎРТАСИДАГИ ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНРАД АДЕНАУЭР ЖАМҒАРМАСИНИНГ ЎРНИ……85

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Ra’no Zafarjon qizi Xatamova,
O‘zbekiston FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi
bo‘lim mudiri, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)
xatamovar16@gmail.com
Orcid ID 0009-0001-2017-3481

O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI

For citation: Ra’no Z. Xatamova. SOURCE STUDIES OF THE HISTORY OF CARPET WEAVING IN UZBEKISTAN IN THE 19TH–21ST CENTURIES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 10.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.23674285

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XXI asr boshlarida O‘zbekistonda gilamdo‘zlik sohasining shakllanishi, rivojlanishi hamda uning texnologik va badiiy-estetik evolyutsiyasini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada o‘zbek milliy gilamchilik san’atining genezisi, mintaqaviy o‘ziga xosliklari va hunarmandchilik markazlarining faoliyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosini boy manbashunoslik bazasi tashkil etib, bunda asosiy e’tibor O‘zbekiston Milliy arxivi fondlari hamda kino-fono-foto fotohujjatlaridagi noyob arxiv materiallariga qaratilgan. Arxiv hujjatlari va vizual manbalar orqali sovet davridagi gilam artellari, fabrikalari, xomashyo ta’minoti hamda an’anaviy hunarmandchilikning sanoatlashuv jarayonidagi o‘zgarishlar ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqotda arxeologik, etnografik va yozma manbalar bilan bir qatorda vizual axborot tashuvchilarning ilmiy ahamiyati baholangan bo‘lib, mazkur mavzu O‘zbekiston tarixi va moddiy madaniy merosini o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, gilamdo‘zlik, XIX–XX asrlar, manbashunoslik, O‘zbekiston Milliy arxivi, kino-fono-foto hujjatlari, hunarmandchilik, an’anaviy texnologiya, tarixiy meros.

Раъно Зафаржоновна Хатамова,
заведующая отделом Государственного музея истории
Узбекистана Академии наук Узбекистана,
доктор философии по историческим наукам (PhD)
xatamovar16@gmail.com
Orcid ID 0009-0001-2017-3481

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ ИСТОРИИ КОВРОДЕЛИЯ УЗБЕКИСТАНА В XIX–XXI ВЕКАХ

АННОТАЦИЯ

Данное исследование посвящено освещению исторического формирования, эволюции и технологического развития ковроделия в Узбекистане в конце XIX – XXI веке. В статье на научной основе анализируются генезис узбекского национального коврового искусства,

региональные особенности и деятельность ремесленных центров. Научно-теоретическую базу исследования составляет обширная источниковедческая база, при этом особое внимание уделено уникальным архивным материалам фондов Национального архива Узбекистана, а также кино-фоно-фото документам. На основе архивных документов и визуальных источников раскрываются процессы деятельности ковровых артель и фабрик в советский период, обеспечение сырьем, а также изменения традиционного ремесла в ходе индустриализации. Кроме того, в исследовании наряду с археологическими, этнографическими и письменными источниками оценено научное значение визуальных носителей информации, что придает данной теме важное научно-практическое значение в изучении истории и материального культурного наследия Узбекистана.

Ключевые слова: Узбекистан, ковроделие, XIX–XXI века, источниковедение, Национальный архив Узбекистана, кино-фоно-фото документы, ремесленничество, традиционная технология, историческое наследие.

Ra’no Z. Xatamova,
Head of Department at the State
Museum of History of Uzbekistan,
Academy of Sciences of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
xatamovar16@gmail.com
Orcid ID 0009-0001-2017-3481

SOURCE STUDIES OF THE HISTORY OF CARPET WEAVING IN UZBEKISTAN IN THE 19TH–21ST CENTURIES

ABSTRACT

This study is dedicated to examining the historical formation, evolution, and technological development of carpet weaving in Uzbekistan during the late 19th and 20th centuries. The article provides a scientifically grounded analysis of the genesis of Uzbek national carpet art, regional characteristics, and the activities of traditional handicraft centers. The scientific and theoretical foundation of the study is built upon a rich source base, with a primary focus on unique archival materials from the funds of the National Archive of Uzbekistan, as well as film, photo, and audio documents. Through these archival documents and visual sources, the study highlights the operations of carpet artels and factories during the Soviet period, raw material supplies, and the transformation of traditional crafts amidst industrialization. Furthermore, alongside archaeological, ethnographic, and written sources, the paper evaluates the scientific significance of visual information carriers, rendering this topic of significant scientific and practical importance for the study of Uzbekistan's history and material cultural heritage.

Index Terms: Uzbekistan, carpet weaving, 19th–20th centuries, source studies, National Archive of Uzbekistan, film and photo documents, craftsmanship, traditional technology, historical heritage.

Kirish:

O‘zbekiston hududida XIX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi gilamdo‘zlik tarixi xalqimizning ko‘p asrlik moddiy madaniy merosi, badiiy-estetik tafakkuri hamda an’anaviy hunarmandchilik taraqqiyotini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu davr mintaqada kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi, bozor iqtisodiyoti ta’siri va sanoatlashuv jarayonlari fonida gilam an’analarining transformatsiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Gilamdo‘zlik sohasining genezisi, texnologik xususiyatlari, xomashyo ta’minoti hamda hududiy markazlar faoliyatini ilmiy jihatdan xolis yoritish bevosita keng qamrovli manbalar bazasiga tayanadi. Mazkur mavzuni tizimli tadqiq etishda O‘zbekiston Milliy arxivi fondlari hamda O‘zbekiston kino-foto-fono milliy arxivida saqlanayotgan yozma va vizual hujjatlarning ahamiyati beqiyosdir. Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan mustamlaka ma’muriyati idoralari hisobotlari, soliq va savdo-

sotiqqa oid ma’lumotnomalar, hunarmandchilik uyushmalari va artellarning faoliyatini aks ettiruvchi arxiv yig‘ma jildlari davrning iqtisodiy-ijtimoiy muhitini ochib beruvchi birlamchi manba vazifasini o‘taydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston kino-foto-fono milliy arxivi fondlaridagi noyob foto hujjatlar XIX asr oxiri va XXI asr boshlarida Buxro, Qashqadaryo, Xorazm va boshqa yirik gilamchilik markazlaridagi hunarmandlarning ish jarayoni, vertikal dastgohlari, tayyor mahsulotlar naqshlari hamda bozor rastalarini aks ettiruvchi fototasvirlar tadqiqotga ilmiy ishonchlilik bag‘ishlaydi. Ushbu yozma va vizual manbalarning uyg‘un holda kompleks tahlil qilinishi o‘zbek gilamdo‘zligi tarixining o‘rganilmagan qirralarini ochib berishda hamda ilmiy xulosalarning haqqoniy bo‘lishini ta’minlashda hal qiluvchi manbashunoslik poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi:

O‘zbekistonda shakllangan gilamdo‘zlik tarixini o‘rganishda manba, xisobot, esdalik, geografik sayyoxatnoma va arxiv ma’lumotlaridan olish mumkin. Shunga

O‘zbekiston gilamdo‘zlik tarixi manbashunosligida rasmiy hujjatlar ishonchli manbalaldan hisoblanadi. Ularda gilamdo‘zlikning an'anaviy uy-hunarmandchilik shaklidan ma'muriy tartibga solinadigan, keyinchalik esa kooperativ va sanoat tarmog‘iga aylanish jarayoni bosqichma-bosqich aks etgan. Qarorlar, farmoyishlar, raportlar, smeta va statistik hisobotlar orqali sohaning tashkil etilishi, xomashyo ta'minoti, ishlab chiqarish hajmi va eksport yo‘nalishi haqida aniq ma'lumot olish mumkin.

O‘zbekiston Milliy arxivida (keyingi o‘rinlarda O‘zMA) saqlanayotgan Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi, viloyat boshqarmalari va shahar ma'muriyatlariga oid raport, protokol va telegrammalar gilamdo‘zlikning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi holatini hujjatli tarzda yoritadi. Ularda ustaxonalar tashkil etish tashabbuslari, mahalliy bozorda narx-navo o‘zgarishi, xomashyo ta'minoti va ko‘rgazmalar haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu manbalar gilamchilikning uy-sharoitidagi ishlab chiqarishdan ma'muriy tartibga solinayotgan tarmoqqa aylanish jarayonini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular rasmiy idora nuqtai nazarini aks ettirgani uchun tanqidiy tahlil talab qiladi.

Masalan, O‘zMa arxiv xujjatlarining I-18 fondida Turkiston general-gubernatorligi Kanselyariyasida gilam ishlab chiqarishni yaxshilash va rivojlantirish masalasi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomasi (protokol) berilgan. Unda general-mayor V.A. Mustafin raisligida mahalliy ma'murlar, mutaxassislar va mahalliy savdogarlar ishtirok etganligi xaqida xujjat mavjud. Shuningdek, I-19 fondidagi manba Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori tomonidan Turkiston general-gubernatori kanselyariyasiga yuborilgan rasmiy yozishma hisoblanadi (1910 yil iyun). Unda Turkistonda gilam ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlanadi. Gilamchilik jahon bozorida talabga ega ekani va mahalliy aholi uchun asosiy daromad manbai ekani ko‘rsatiladi.

Qo‘llab-quvvatlash choralari sifatida hududiy ko‘rgazmalar o‘tkazish, eng yaxshi gilamlarga pul mukofoti berish hamda jun va o‘simlik bo‘yoqlari omborlarini tashkil etish taklif qilingan.

Yana bir qimmatli hujjatlar turkumiga kiruvchi I-22 fondda Samarqand viloyatiga qarashli Katta-Qo‘rg‘on uyezdi boshlig‘ining rasmiy axboroti hisoblanadi. Unda uyezd hududida gilam to‘qish asosan mahalliy aholi tomonidan shaxsiy ehtiyoj uchun amalga oshirilishi qayd etilgan.

Uch turdagi gilam ishlab chiqarilishi, ishlab chiqarish hajmi va ayollarning (taxminan 25 foizi) yakka tartibda shu hunar bilan shug‘ullanishi ko‘rsatilgan.

Gilamchilikni qo‘llab-quvvatlash uchun arzon jun va bo‘yoqlar bilan ta’minlash, har bir volost'da nazoratchilar tayinlash va mahalliy naqshlarni saqlagan holda ishni takomillashtirish taklif qilingan.

O‘zMAning R-3 fondida O‘rta Osiyo respublikalarida gilam sanoatining sovet davridagi holati bayon qilingan. 1917 yildan keyin gilamchilik sohasida yangi bosqich boshlangani, ayniqsa kustar-hunarmandchilik artellari tashkil etilishi orqali tarmoq tiklangani ta’kidlanadi. Gilamchilikning rivojlanishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, xususan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot bilan bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. O‘rta Osiyo xalqlarida gilamchilik qadimiy an'anaga ega bo‘lib, turkman gilamlari sifat jihatidan alohida e'tirof etilgan.

O‘zMAning R-91 fondida O‘zbekiston SSRda gilamchilikni davlat tashabbusi bilan rivojlantirish choralari bayon etilgan. Asosiy masala sifatida kustarlarni xom ashyo bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni rejalashtirish va gilam-palaslarni eksport qilishni yo‘lga qo‘yish ko‘rib chiqiladi.

1920–1980-yillarga oid qarorlar, farmoyishlar, smeta va hisobotlar gilamdo‘zlikning kooperativ-artel tizimiga o‘tkazilishi, fabrikalar tashkil etilishi va eksport rejalari belgilab borilganini tasdiqlaydi. Gosplan, Mahalliy sanoat vazirligi va Savdo organlari materiallari orqali xomashyo kvotalari, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy hisob-kitoblar aniq ko‘riladi. Bu hujjatlar gilamdo‘zlikning an’anaviy hunarmandchilikdan rejali iqtisodiyot sharoitidagi sanoat tarmog‘iga aylanishini o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi. O‘zMAning R-837 fondida 1974 yil Olmaliq shahrida gilam ishlab chiqarish fabrikasi qurish bo‘yicha loyiha tasdiqlanganligi to‘g‘risidagi farmoyish uchraydi. Fabrika qurilishi uchun belgilangan smeta xarajatlari va tegishli tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgani keltirilgan.

Shuningdek, avval qurilayotgan elektr o‘yinchoqlar zavodi direksiyasi gilam fabrikasi direksiyasiga aylantirilishi belgilangan.

Milliy arxiv fondlarida saqlanayotgan yillik hisobotlar, ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotlar statistik tahlil qilish uchun muhim manbadir.

O‘zbekiston Milliy arxivi manbalari gilamdo‘zlik tarixini ma'muriy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan o‘rganish uchun ilmiy asos bo‘la oladi.

O‘zbekiston Kino-foto-fono milliy arxivi hujjatlari respublikada milliy hunarmandchilik va gilamchilik san’atini targ‘ib qilish hamda muzeylashtirish jarayonlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Jumladan, Jizzax viloyati Zomin tumanidagi “Bahmal” sovxozi gilamchilik цехининг 1981 йилдаги фаолияти, Farg‘ona shahridagi san’at maktabi o‘quvchilarining ijodiy namunalari hamda Toshkent shahrida 1984 yilda muzeyda ochilgan “Gilamlar va so‘zanalar” bo‘limi va ilk mehmonlar jarayoni arxivda saqlanmoqda.

Shuningdek, Xiva shahridagi “Umid” gilamchilik arteli faoliyati, jumladan, ceh mudiri N. Djumaniyazova va yetakchi ustalar tomonidan gilam qabul qilinishi, ilg‘or qizlarning mehnat ko‘rsatkichlari hamda gilam naqshlarining muhokama qilinish jarayonlari fotohujjatlarda muhrlangan. Bundan tashqari, Samarqanddagi “Mehnatkash ayollar” arteli hamda Qashqadaryo viloyati Koson savdo-sanoat kombinatining gilamchilik cehi faoliyatiga oid fotoma’lumotlar mintaqada gilamchilik sanoati va xotin-qizlar bandligini o‘rganishda ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa:

Gilamdo‘zlik tarixi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu hunarmandchilik sohasi insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan va rivojlangan.

Gilamdo‘zlik sohasi uzluksiz rivojlanib borganligi, uning iqtisodiy, madaniy va ma’naviy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Manbalarning turli davr va turli yo‘nalishga mansubligi ushbu sohani keng tadqiq etishni taqozo qiladi. Shu bois gilamdo‘zlik tarixi oid manbalarini shakllantirish va yangi arxiv materiallarini ilmiy muomalaga kiritish kelgusidagi tadqiqotlar uchun dolzarb vazifa xisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX - начала XX вв. [Часть 1]. Ташкент, 1970. Стр 7.
2. Xatamova R.Z. O‘zbekistonda gilamdo‘zlik tarixining manbashunosligi. “Scientific research, innovations and modern approaches”. 2026, 3-son. – B. 63-75
3. O‘zMA. I-18 – fond
4. O‘zMA. I-19 – fond
5. O‘zMA. I-22 – fond
6. O‘zMA. R-3 – fond
7. O‘zMA. R-91 – fond
8. O‘zMA. R-837 – fond

9. O‘zbekiston Kino-foto-fono milliy arxivi. Foto №0-123724
10. O‘zbekiston Kino-foto-fono milliy arxivi. Foto №0-230012-инв.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000